



Madina RAVSHANOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti doktoranti
G-mail: ravshanovamadina090119942@gmail.com

O'zMU, dotsent, PhD, H.Sarimsokov taqrizi asosida

DUNYO TILSHUNOSLIGIDA LEKSIK BIRLIKALAR TADQIQI YUZASIDAN ILMUY-NAZARIY QARASHLAR

Annotatsiya

Mazkur maqolada tilshunoslik sohasida leksik birliklarning nomlash jarayoni, ya'ni nominativ funksiya muhim ahamiyat kasb etadi. Tilshunos olimlarning fikrlari va nazariy yondashuvlari ko'rib chiqildi, bu asosida nazariy tahlillarimiz, yondashuvlar bilan dalillashga harakat qilamiz.

Kalit so'zlar: Leksik birliliklar, nominatsiya, tilshunoslik, hunarmandchilik, lingvistik nom, lug'at, tilshunos olimlar.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ НА ИЗУЧЕНИЕ ЛЕКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В МИРОВОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация

В данной статье большое значение в области языкоznания имеет процесс наименования лексических единиц, то есть номинативная функция. Были рассмотрены мнения и теоретические подходы лингвистов, на основе которых мы попытаемся доказать своими теоретическими анализами и подходами.

Ключевые слова: лексические единицы, номинация, лингвистика, мастерство, лингвистическое название, словарь, лингвисты.

SCIENTIFIC AND THEORETICAL VIEWS ON THE STUDY OF LEXICAL UNITS IN WORLD LINGUISTICS

Annotation

In this article, the process of naming lexical units, that is, the nominative function, is of great importance in the field of linguistics. The opinions and theoretical approaches of linguists were considered, based on which we will try to prove with our theoretical analyzes and approaches.

Key words: lexical units, nomination, linguistics, craftsmanship, linguistic name, dictionary, linguists.

Kirish. Inson borliqda o'z nutqiy faoliyatida foydalanib muloqotga kirisha oladigan yagona ongli mavjudotdir. Nutqning rivojlanishi asosida tevarak atrofda mavjud narsa, buyum, predmet, shaxs va xatto voqelikni nomlash ya'ni nominatsiya jarayoni yotadi. Bugunga kelib tilshunoslik soxasida leksik birliklarning nomlash jarayoni, ya'ni nominativ funksiya muhim ahamiyat kasb etadi. Bu lisoniy jarayon, o'z navbatida, ijtimoiy-iqtisodiy tarraqqiyot natijasida kun sayin ildamlayotgan ilm-fan, texnika hamda texnologiyalarga oid yangi bilim va tushunchalarining hamda lug'aviy tarkibning kengayib borayotganidan, binobarin, ularni chuqurroq tadqiq etishga extiyoj borligidan dalolat beradi.

Adabiyotlar tahlili. Tilshunoslari o'zlarining ilmiy tadqiqotlarida turli tillarga mansub xususiyatlarni qiyoslab o'rganishgan. Shu jumladan, o'zbek olimlaridan Madvaliyev A (Ўзбек тилининг изоҳли лугати), Sarimsoqov N.A (Инглиз ва ўзбек тилларида спорт терминлари таҳлил ва тадқики), hamda rus olimlaridan Катермина В.В. (Номинация как лингвистическая проблема), Ладо Р (Новое в зарубежной лингвистике) va boshqalarning tadqiqot ishlariidan foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi Inson borliqda o'z nutqiy faoliyatida foydalanib muloqotga kirisha oladigan yagona ongli mavjudotdir. Bundan tashqari yana bir voqelik borki bu muloqotning asosini tashkil qiladi. Chunki nutqining rivojlanishi asosida tevarak atrofda mavjud narsa, buyum, predmet, shaxs va xatto voqelikni nomlash ya'ni nominatsiya jarayoni yotadi. Bugunga kelib tilshunoslik soxasida leksik birliklarning nomlash jarayoni, ya'ni nominativ funksiya muhim ahamiyat kasb etadi. Bu lisoniy jarayon, o'z navbatida, ijtimoiy-iqtisodiy tarraqqiyot natijasida kun sayin ildamlayotgan ilm-fan, texnika hamda texnologiyalarga oid yangi bilim va tushunchalarining hamda lug'aviy tarkibning kengayib borayotganidan, binobarin, ularni chuqurroq tadqiq etishga extiyoj borligidan dalolat beradi.

Biz tadqiqotga tortgan sohaning o'zi ham nominatsiya orqali vujudga kelgan. Biroq tadqiqot obyektfidan uzoqlashmaslik uchun hunarmandchilik nima ekanligiga ilmiy va nazariy anqlik kiritaksak. Jumladan, o'zbek tili izohli lug'atlariga nazar tashlaganimizda hunarmandchilik - milliy-an'anaviy mayda tovar

ishlab chiqarish, oddiy mehnat qurollari yordamida yakka tartibda va qo'l mehnatiga asoslangan sanoat turi va shunday mahsulotlar tayyorlanadigan kasblarning umumiy nomi[1].

Elektron lug'atlar orqali ushbu leksik birlikni tahlil qilganimizda esa, ma'nosi uzoqlashmagan holda, ishlab chiqarishning kasb-hunar egalari (hunarmandlar) faoliyat yuritadigan sohasi[2]. deya qayd etilgan.

Ingliz tilida mayjud manbalarni kuzatganimizda, jumladan, oksford onlays on lug'atida handicraft va craftsmanship leksik birliliklari hunarmandchilikning eng yaqin muqobilari sifatida kuzatish mumkin. Mazkur lug'atga asosan bu ikki birlikka quydigicha ta'riflar berilgan, 1) handicraft - the activity of making attractive objects by hand[3]. - tarj.: qo'l bilan jozibali narsalarni yasash faoliyat; 2) craftsmanship - the level of skill shown by somebody in making something beautiful with their hands[4]. - tarj.: kimdir qo'llari bilan chirolyi narsalarni yasashda ko'rsatgan mahorat darajasi, deya ta'rif berilgan.

Longman nashriyoti tomonidan taqdim etilgan izohli lug'atda berilishicha, 1) handicraft - something that someone has made in a skillful way using their hands[5]. - tarj.: kimdir o'z qo'llari bilan mohirona qilgan narsa; 2) craftsmanship - the special skill that someone uses to make something beautiful with their hands[6]. - tarj.: kimdir o'z qo'llari bilan chirolyi narsa qilish uchun foydalananidigan maxsus mahorat, deya taqdim etilgan.

Demak, ikki tilda berilgan ta'riflardan kelib chiqib, hunarmandchilik bir qancha mehnat qurollari yordamida yakka tartibda va qo'l mehnatiga kichik sohalarni umumlashtiruvchi soha desak hato bo'lmaydi. Biz ushbu paragrafdha hunarmandchilik sohasiga doir leksik birliklarning nominativ jarayonlar tadqiqini taqdim etamiz.

Tilshunoslik sohasida nominatsiya (lotincha nominatio - nomlash, nomlamoq) nominativ jarayonlar bilan tavsiflangan til birliklarning shakllanishi, narsa-buyum, o'r-in-joy, shaxs kabi borliqdagi real va noreal narsalar hamda voqelikni so'z, so'z birikmasi, hatto ibora ko'rinishida ifodalash jarayonidir. Nominatsiya jarayoni lingvistik va leksikologik tadqiqotlarni amalga oshirishda o'ziga xos o'r'in tutadi[7].

Tahlillarimizga ko'ra, tor ma'noda foydalanishda nominatsiya haqida gap ketar ekan, ko'plab tilshunos olimlar, tadqiqotchilar alohida so'zlar yoki iboralar yordamida ob'ektlarni belgilash jarayoni deb hisoblashadi. Aslida esa, ular borasida olimlar tomonidan aytilgan nazariy qarashlar orqali yakuniy fikr yoki xulosaga kelish maqsadga muvofiq.

A.Leontev: "Nominatsiya til belgilarini tafakkur vositasi orqali muayyan jarayon yoki hodisa sifatida ko'rib chiqadi. Bu belgilarda inson ijtimoiy tajribasi, kashf etilgan jismlar dunyosi, uning xususiyatlari hamda xossalari, aloqa va munosabatlarini til materiyasiga o'ralgan shaklda ideal aks ettiradi" [8] deya ta'rif beradi.

G.V.Kolshanskiy: "Zamonaviy tilshunoslikka ko'ra, nominatsiya - bu obyektlarning xususiyatlарини aks ettiruvchi konseptual xususiyatlarning lingvistik jihatdan mustahkamlashdan o'zga narsa emas" [9], deya izohlagan.

Nominatsiya jarayonida faqatgina inson faoliyati yo'naltirilgan aniq yoki mavhum obyektlar nomlanadi. Obyektlarning o'zi tashqi yoki ichki dunyoga tegishli bo'lishi mumkin, ular zohiriy dunyoga va botiniy dunyoga teng ravishda tegishli bo'lishi mumkin, ammo nom obyekt haqidagi "to'xtalgan" fikrga beriladi[10].

Har qanday muloqot jarayoni lingvistik elementlardan tashkil topadi, aynan, munosabat yoki muloqotni tashkil qiluvchi mazkur lingvistik elementlar, ya'ni ma'lum tushunchani ifodalovchi so'z biror-bir predmet yoki voqelikni tasvirlash orqali inson ongida dastavval o'sha predmet va hodisa haqida ilk shaklini (prototipik) yoki ilk tasvir tushunchasini vujudga keltiradi. Shunday ekan, inson ongida paydo bo'lgan ma'lum obyekt, voqelik va jism, ular haqidagi tushunchaning til belgisiga asoslangan tasviriy sifatlanish hodisasi - lingvistik nom olish yoki nominatsiya jarayoni deyiladi.

Tahlillarimiz davomida shu narsa oydinlashdiki, nominatsiya masalariga daxldor ishlar ilk bor Praga tilshunoslik maktabi vakillari tomonidan muhokamaga qo'yilgan va keyinchalik tilshunoslikka ushbu jarayon ilmiy muammo sifatida ilgari surilgan va tadqiq etilgan. Mazkur ilmiy maktab vakillari tahlilning boshlang'ich nuqtasi sifatida muloqotga kirishuvchilarining muloqot maqsadlarini aniqlashni taklif etib, masalaning markaziy nuqtasiga "u yoki bu real vaziyat doirasidagi (maqsadni ifodalovchi) gap"ni qo'yishgan[11].

O'zbek olimlarining fikri ham bu borada juda o'rinni bo'lib, nominatsiya jarayoni haqidagi fikrlarni ilgari surishgan. Nominatsiya prinsiplarini to'g'ri belgilash nomshunoslikning eng muhim nazariy va amaliy masalalaridan biridir. Nominatsiya prinsiplari davriy bo'ladi, o'zgarib turadi. Aholining turmush tarzi, madaniyati, tafakkur olami nominatsiya prinsiplarini belgilaydi. O'tmish davrlarga xos nominatsiya prinsiplarini hozirgi davrga xos omillar bilan qiyoslash va sharhlashtirish yoki aksincha yo'l tutish mumkin emas[12].

Bundan anglash mumkinki, shaxs tafakkurini shakllanishining har bir takomillashuv jarayoni, har bir davrida mavjud bo'lgan har qanday fan soxa (tizimda, tuzilishida, shamoyilda, uslubda, metodda, qonuniyatda, texnologiyasida... v.h.) si nominatsiya jarayoni tamoyillari bilan uzviy bog'liq.

Shunday ekan, nominatsiya jarayonida leksik birlıklarini tasviflash va tasniflash hodisasi o'ziga xos ahamiyatlari lingvistik fenomenadir. Shunday ekan, hunarmandchilik soxasiga doir leksik birlıklarining nominatsiyasini tasniflash jarayoni ham muhim omil hisoblanadi. Hunarmandchilik soxasiga doir leksik birlıklarini semantik jihatdan uch turga ajratib o'rganishimiz mumkin. Quyida ularni jadval va ta'rif ko'rinishida taqdim etishni maqsadga muvofiq deb bildik.

Birinchi tasnif - mavhum tushunchalar nominatsiyasi. Mavhum (lotincha abstractio) tushunchalar nominatsiyasi jarayoni shundan iboratki, u soha nazariysi yoki amaliyoti bilan bog'liq bo'lib, mantiqan ob'ektiv reallik atrofida hosil bo'ladi tushunchalarning ifodalish masalasini yoritishda, hodisalarning mazmun-mohiyatini ochib berishda, ular haqida to'g'ri xulosalar chiqarishda yordam beruvchi nominativ-funksional jarayondir. Masalan: ustachilik (mastery); duradgorlik (carpentry); naqqoshlik (painting, patterning); hattotlik (calligraphy); tikuvchilik (tailoring); etikdo'zlik (shoemaking); zargarlik

(jewelry); o'ymakorlik (carving); chilangarlik (plumberry); kulolchilik (pottery); kashtado'zlik (embroidery); mato bo'yash (batik); qayishiq, egiluvchanlik (ductility); parmalash (boring); tikuvchilik (stitchery, sewing); og'ir mehnat (toil) kabi misollar shu tasnif tarkibiga kiradi.

Ikkinci tasnif - mavjud (real) tushunchalar nominatsiyasi. Ushbu jarayonda mavhumlik emas, balki reallik asosiy omil hisoblanib, mavjud (konkret, aniq) tushunchalar nominatsiyasi asosida muayyan obyektni konkret nomlash jarayoni yotadi. Masalan: arra (saw); igna (needle); g'altak (reel); elak (sieve); ko'za (pitcher); shokila, (osma) bezak (pendant); gilam, sholcha (carpet, rug); sopol parcha (sherds); iskana (chisel, moil); parchin (rivet); mih (nail); bog', bog'ich (tuft); tasma (belt); quyi (box); charh (crankshaft); tahta (wood); mebel jihoz (furniture); qog'oz (paper); mato (cloth); kabilar bunga misol bo'ladi.

Uchinchi tasnif - ifoda nominatsiyasi. Bu - nutqimizda tovushlar tizimi orqali hosil bo'ladi nutqiy aktlarning lingvistik jihatdan nom olish jarayoni. Mazkur tasnif inson nutqida kamdan-kam uchrashiga qaramasdan, inkor etib bo'lmaydigan lingvistik hodisadir. Bu his, tuyg'u bilan bog'liqligi sababli qanday paydo bo'lса, shunday nomlanadi. Tadqiqotimizning obyekti bo'lgan hunarmandchilikka doir leksik birlıklar ko'lamida quyidagilarni bunga misol sifatida keltirishimiz mumkin. Masalan: Rococo - o'ziga hos bezak turining nomi. Etimologik jihatdan tahiliga tortganimizda, Lotin tilidagi rocca (tosh) so'ziga taqlid qilib olingan va 1836 yildan boshlab, eskicha, qadimiy, antiqiy va urfdan qolgan ma'nolarida qol'llangan. Izohli lug'atlarda, Rococo is an exceptionally ornamental and dramatic style of architecture, art and decoration[13] - tarj.: Rokoko - arxitektura, san'at va bezakning o'ziga xos bezakli va dramatik uslubi izohi berilgan.

Ushbu nominativ tasniflash jarayoni leksik birlıklarining miqdori va fonetik jihatdan ifoda etilishi va farqlanishidan qat'iy nazar, til tizimidagi nomlash hodisasingin umumiylar mehanizmi va funksional vazifalari o'xshashdir. Lingvistik jihatdan qiyoslashning universaliyalariga misol bo'la oladi. Jarayon esa tillarning o'xshash jarayoni hisoblanadi. H.A.Sarimsokov o'zining nominatsiyaga doir ishida quyidagilarni qayd etgan, "...nomlash hodisasingin umumiylar mehanizmi va funksional vazifalari o'xshashdir. Lingvistik jihatdan qiyoslashning universaliyalariga mos kela oladi. Bundan xulosa qilish mumkinki, lingvistik jihatdan universaliyaning yana ikki turi mavjud. Masalan, 1) hamma tilda til moyorlari ko'rsatib beruvchi oshkor, ochiq yoki yorqin lisoniy hodisalar: ega, kesim, ot, sifat va h.k.; 2) faqat tilshunoslikka oid tadqiqotlar yuzaga keluvchi yashirin, yopiq lisoniy hodisalar: fonetik, nominatsiya jarayoni bunga yaqqol misol bo'la oladi" [14].

Nomlash jarayonining eng muhim lingvistik tamoyillaridan biri shuki, nomlanayotgan narsa - buyum obyektning aniq ifodasi yoki belgisi til yoki nutq yordamida uning ongda umumlashgan tasvirini, mazmun-mohiyatini to'laqonli yoritib berishidir. Ilmiy ifodasiga ko'ra, til yoki nutq orqali predmetning kognitiv tasviri xususiylikdan umumiylikka o'tish jarayonidir. Shunday anglashiladi, nominatsiya jarayoni belgilash va umumiste'molga kirish jarayonlaridan tashqari, o'rganish yoki o'rgatish (til shakli ifodalagan ma'lumotni to'liq yoritib, to'g'ri yetkazib berish) kabi lingvometodik funksiyalarini ham bajaradi.

Xulosalar. Mamlakatimizda so'nggi yillarda erishilayotgan katta yutuqlar bilan bir qatorda turli sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, hunarmandchilik sohasi hamda sohani qamrab oluvchi fanlarning rivoji va taraqqiyoti ta'sirida timizida yangidan-yangi sodda va murakkab leksik birlıklar paydo bo'lmoqda. Bu biz tilshunoslarni doimiy ravishda xushyorlikka chorlaydi.

Biz yuqorida hunarmandchilik sohasida faol qo'llaniladigan nominatsiya jarayonlariga bir necha yondashuvlar orqali ilmiy-nazariy ta'rif beridik. Qisqacha aytganda, tilshunoslikda nominatsiya - bu biror-bir real va noreal voqelikni nomlash jarayonidir. Nominatsiya jarayoni bizni qurshab turgan olamdag'i jism yoki hodisalarning o'ziga xos xususiyatlarini ifoda etish va ular haqida ongimizda aniq tasavvur hosil qilishda muhim bo'lgan lingvokognitiv xodisadir.

ADABIYOTLAR

1. Мадвалиев А. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 5 жилдли. 1-5- жиллар. –Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006-2008. X-харфи.
2. <https://izoh.uz/uz/word/hunarmandchilik>
3. <https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/definition/english/handicraft?q=handicraft>
4. <https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/definition/english/craftsmanship?q=craftsmanship>
5. Longman, Active study of English. Русский язык. –М.: 1988. –Р. 277.
6. Longman, Active study of English. Русский язык. –М.: 1988. –Р. 143.
7. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 5 жилдли. 1-5- жиллар. –Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006-2008.
8. Леонтьев А.Н. Проблема деятельности в психологии // Вопросы философии. – Москва, 1972. –№ 9. 134 б.
9. Колшанский Г.В. Некоторые вопросы семантики языка в гносеологическом аспекте // Принципы и методы семантических исследований. - М., 1976. - С. 5-81.
10. Катермина В.В. Номинация как лингвистическая проблема// Альманах современной науки и образования Тамбов: Грамота, 2008. № 8 (15): в 2 хч. Ч. I. С. 82-84. ISSN 1993-5552.
11. Тезисы Пражского лингвистического кружка. – М., 1967. 17 б.
12. Бегматов Э., Дўсимов З., Нафасов Т., Корабев С. Ўзбек номшунослиги: тадқиқ йўналиши ва усуллари //Хива. Номшунослика бағишланган илмий-амалий анжуман тезислари. – Хива, 1991. – № 1. – Б. 12.
13. tymonline.com/search?q=Roccoco
14. Саримсоков Х.А. Инглиз ва ўзбек тилларида спорт терминлари таҳлил ва тадқики: Монография/-Тошкент, 2021.-Б.28.